

## BUGUNGI O'ZBEK FUTBOLINING YUTUQLARI

**Xamidov Nurbek**

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tuman  
13-Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada millionlar o'yini bo'lmish futbol sohasida yurtimizda erishilayotgan yutuqlar haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Futbol, R.Haydarov, murabbiy, U-23, Qatar, Yaponiya, Osiyo chempionati, Mirjalol Qosimov, Temur Kapadze, Ro'ziqul Berdiyev.*

Mana necha yillar o'tayaptiki, o'zbek futbolida juda o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Yoshlar uchun qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Qolaversa, turli xil futbol maydonchalari bunyod etilmoqda. Yoshlarni yanada jalb qilish uchun anchagina malakaga ega bo'lgan murabbiylar ham harakat qilishmoqda. Bu esa o'z natijalarini bermasdan qolmayapti.

Ko'ryapmizki, katta yoshdagi, qolaversa, kichik yoshdagi terma jamoalarimiz ham xalqaro maydonlarda o'zini ko'rsatib kelishmoqda. Masalan, birgina 2018-yil Ravshan Haydaydarov boshchiligidagi U-23 terma jamoamiz Xitoy yashil maydonlarida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida raqiblariga yetarlicha qarshilik ko'rsata oldi. Ushbu kechgan turnirda yoshlar terma jamoamiz vakillari guruhning birinchi o'yinida Qatar yoshlar terma jamoasiga 0:1 hisobida imkoniyatni boy bergan bo'lsa-da, qolgan ikki o'yinda g'alaba qozonib, guruhni ikkinchi o'rin bilan yakunladi va keying bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Pley-off bosqichining chorak va yarim finallarida Yaponiya yoshlar terma jamoasi 4:0 va Janubiy Koreya yoshlar terma jamoasi 4:1 hisobida mag'lub etildi. Yakunda finalda O'zbekiston yoshlar terma jamoasi Vyetnam yoshlar terma jamoasi ustidan qo'shimcha bo'limlarda 2:1 hisobida g'alaba qozondi. Shu tariqa, O'zbekiston yoshlar terma jamoasi ilk bor 23 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasi Osiyo chempioni bo'ldi. Bu ham bizning futboldagi yutuqlarimizdan biri hisoblanadi.

2019-2020-2021-2022-yillarga kelib futbolga bo'lgan qiziqishimiz yanada ortdi. Yanada qulay imkoniyatlar yaratildi. Bir qancha nomdor murabbiylar ham ertay-yu kech tinmasdan mehnat qilishdi. Shulardan: Temur Kapadze, Ro'ziqul Berdiyev, Ravshan Haydarov, Mirjalol Qosimov kabi murabbiylarni sanab o'tishimiz mumkin. Bu murabbiylarimizning tinim bilmay mehnat qilishi 2023-yilga kelib ham o'z samarasini bermasdan qolmadi. Aynan bu yil yurtimizda bo'lib o'tgan 2023-yilgi OFK U-20 Osiyo kubogida Ravshan Haydarov murabbiyligi ostidagi U-20 jamoamiz ajoyib o'yinlari bilan muhlislarimizning ham yodida qolishdi. Jamoamiz o'zi mezbonlik mazkur turnirda "A" guruhida o'rin oldi. Ushbu guruhda, Iroq, Indoneziya, Suriya kabi nomdor jamoalar bor edi. Shunga qaramasdan jamoamiz vakillari ishonchli o'yinlar ko'rsatildi. Dastlabki

kechgan uchrashuvda Suriya jamoasi 2:0 hisobida mag'lub etildi. Qolgan uchrashuvlarda ham jamoamiz ishonchli ochkolarni qo'lga kiritib, guruh o'yinini muvaffaqiytali yakunladi. Shu tariqa pley-off bosqichining chorak finalida Avstraliya yoshlar jamoasiga qarshi maydonga chiqishdi. Uchrashuv ajoyib ruhda kechdi. Jamoalar kuchi teng kelganligi sababli penaltilar seriyasi bo'lib o'tdi. Va unda jamoamiz vakillari ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi. Yarim finaldagi raqibimiz esa Janubiy Koreya yoshlar terma jamoasi bo'ldi. Ushbu uchrashuvda ham penaltilar seriyasiga yuzlanildi va amalda Fayzullayev, Makhmadjonov, Abdurahmatovlarning aniq kiritgan gollari evaziga final bosqichiga yo'llanma qo'lga kiritildi. Finaldagi raqibimiz esa Iroq yoshlar terma jamoasi bo'ldi. Uchrashuv ajoyib va ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Aynan o'sha uchrashuvni shaxsan mamlakatimiz Prezidentining o'zi ham kuzatib bordi. Yakunda jamoamizning yetakchi futbolchilaridan biri Rahmonaliyevning kiritgan goli evaziga jamoamiz ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi va kubokni boshi uzra ko'tardi. Bu g'alaba bilan futbolchilarimiz va futbol ixlosmandlarini tabriklaymiz.

Quvonarli tomoni shuki, jamoamiz bu natijalari bilan aynan shu yilida Argentina yashil maydonlarida bo'lib o'tgan U-20 jamoalari o'rtasidagi Jahon chempionatida ham ishtirok etishdi. Bu natijalarning barchasi bugungi o'zbek futbolining rivoj topayotgani va yutuqlaridan dalolat beradi.

Yurtimiz futbolining rivojlanishida quyidagilar muhim ro'l o'ynaydi.

1. Futbol akademiyalari: O'zbekistonda futbolning rivojlanishi uchun bir nechta davlat va maxsus klublarning akademiyalari faoliyat yuritadi. Bu akademiyalar yosh futbolchilar uchun to'liq tayyorlanish imkonini beradi va ularga katta ligalarda o'ynash imkonini beradi. Ular orasida "Bunyodkor" va "Lokomotiv" klubi akademiyalari katta e'tibor qo'shib turiladi.

4. O'zbekiston Super Ligasi: O'zbekiston futbolda o'tkaziladigan eng yuqori darajali klub turniri O'zbekiston Super Ligasi hisoblanadi. Bu liga 1992-yilda o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, O'zbekistonning eng kuchli klublarining jangiga shaxsiy jangchilar bilan qatnashish imkonini beradi.

5. Futbol infrastrukturasi rivojlanishi: O'zbekistonda futbolning rivojlanishi uchun hammasi yirik futbol stadionlari, sport komplekslari va yoshlar jamoalarini tayyorlashga qaratilgan muhim loyihalar bilan amalga oshirilmoqda. Bunday infrastrukturani rivojlantirish orqali, futbolning sifatini va jamoalarimizning ko'rsatkichlarini yanada oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda O'zbek futboli maydoniga yangiliklarni takomillashtirish va futbolning sifatini yanada oshirish uchun harakat qilingmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Akramov Futbol darslik Toshkent -2006
2. Акимов А.М. Игра футбольного вратаря. М., ФиС, 1978.
3. Акрамов Р.А. Отбор и подготовка юных футболистов. Учебное пособие. Ташкент,  
4. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. R.I. Nurimovning umumiy tahriri ostida «ITA-PRESS». Toshkent.2015. 364 bet
5. Nurimov R.I.,Abidov Sh.U.,Nurimov Z.R., Davletmuratov S.R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol) Darslik. «ITA-PRESS». Toshkent.2015. 180 bet